

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

II KURS TALABASI

S. JABBOROVANING

«AMIR UMARXON IJODI» mavzuda yozgan

KURS ISHI

(2013-2014- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent
H. Eshonqulov.

AMIR UMARXON IJODI

I bob: Amir Umarxon o`zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili.

I.1. A.Umarxon shaxsiyati va she`riyatining shakllanish omillari.

I.2. A.Umarxon she`riyatining janriy tarkibi va mavzular olami.

II. Amiriyning g`azalnavislikdagi badiiy mahorati

II. 1. Amiriy ijodida tashbeh, istiora va husni ta`lil san`atlarining qo`llanilishi.

II. 2. Amiriy ijodida talmeh, tazod, tajnis badiiy san`atlarining qo`llanilishi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiotlar.

Mavzuning dolzarbligi.

Ilm-fan har doim taraqqiyot, rivojlanish tarafdori. U doim yangi bilimlar, yangi xulosalar talab etadi. Bilimlar va ilmiy izlanishlar natijasida kelib chiqadi. Ammo Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlaganlaridek, "Ilmiy ishni hech qachon buyruq, topshiriq va ko'rsatmalar bilan bajarib bo'lmaydi. Umuman ilm-u fanni bir qolipga solib bo'lmaydi".

Mavzuning o'rganilishi.

Amiriy hayoti, faoliyati va ijodi haqida "U hayotligidanoq ko'p va xo'p" yozilgan. Jumladan, Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasi, Mirzaolim Mushrifning "Ansob us-salotin" va "Tavorix ul-havoqin", Hakimxon To'raning "Muntaxob ut-tavorix", Isoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi", Dilshod Barnoning "Tarixi muhojiron" kabi tarixiy asarlari, Nodira, Dilshod, Maxmur, Ado, Uvaysiy, Gulxaniy, G'oziy, Ma'dan kabi Qo'qon adabiy muhiti namoyandalarining she'rlarida hukmron shoir shohni faoliyati va she'rlari xususida goh ko'tarinki ruhdagi mubolag'ali, goh bir yoqlama tanqidiy fikrlarga duch kelamiz. Zamonaviy adabiyotshunoslikda esa Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Olim Sharofiddinov, Miyon Buzruk Solihov, Ibrohim Mo'minov, Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, T.Jalolov, Po'latjon Qayumov, Aziz Qayumov, Mahbuba Qodirova, Abdulqodir Abdug'afurov, Hasanxo'ja Muhammadxo'jayev, Hamidulla Boltaboyev, Hamidjon Homidiy, Rustam Tojiboyev, Otabek Jo'raboyev, Sabohat Rahimova kabi olimlar Qo'qon adabiy muhiti Amiriy hayoti va ijodining u yoki bu qirralarini yoritganlar.

Maqsad va vazifalari.

- Amiriyning badiiy merosi bilan tanishish va uning tarkibini o'rganish;
- Uning ijodiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- Amiriy asarlarining mavzular va g'oyalar tizimini o'rganib, ularni tadqiq qilish;
- Amiriy asarlarining badiiy xususiyatlarini, yangi qirralarini ochish.

Ilmiy ahamiyati.

Mustaqillik davrigacha o`rganilishi ancha sust va bir yoqlama bo`lgan Amiriy ijodini she`riyat muxlislari e`tiboriga to`liq va to`g`ri to`lqinda yetkazish maqsadida litsey va oliy o`quv yurti talabalari o`quv dasturiga Amiriyning hayoti va ijodi alohida soatlarda o`rganiladi.

Ishning tarkibi.

Mazkur kurs ishi kirish qismi, asosiy qismda ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB: AMIR UMARXON O`ZBEK MUMTOZ

ADABIYOTINING YIRIK VAKILI

I.1. A.UMARXON SHAXSIYATI VA SHE`RIYATINING

SHAKLLANISH OMILLARI

XIX asrning birinchi choragi siyosiy-ijtimoiy va madaniy adabiy hayotida katta rol o`ynagan Amir Umarxonning hayoti va faoliyati Vatanimiz tarixining yorqin sahifalarini tashkil etadi. Amiriy taxallusi ostida o`zbek va fors-tojik tillarida mahorat bilan qalam tebratgan bu iste`dodli zullisonayn shoir Qo`qon xonlari sulolasiga mansub bo`lib, 1787 yili Farg`ona hukmdori - o`zbeklarning Ming urug`idan chiqqan Shohruxiylardan Norbo`tabiy xonadonida dunyoga keladi. Boshlang`ich ma`lumotni saroy muallimlari qo`lida olib, keyin Qo`qon madrasasida o`qigan. Yetuk ustozlar tarbiyasi o`tkir zehn va tirishqoqligi tufayli arab va fors tillarini chuqur o`rganadi. Sharq mumtoz adabiyotini sevib mutolaa qiladi. Muhammad Yoqubdan diniy va tasavvufiy ilmlarni o`rganadi. O`z davrining barcha asosiy bilimlarini egallab, harb san`atidan ham ta`lim olib fozil va shijoatli bir shaxs bo`lib kamolga yetadi. Aqlli, tadbirli, tashkilotchi bo`lgani uchun ham Umarxon yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilinadi: akasi - Qo`qon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etadi. 1807-1808 yillarda akasi unga Marg`ilon hokimligini ishonib topshiradi. Shu yillari u tog`asi - Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi Mohlaroyimga uylanadi.

Umarxon Mohlaroyim bilan qisqa, lekin mazmunli umr kechirib, Muhammad Alixon va Sulton Mahmud nomli ikki o`g`il ko`radi. Madalixon Xon taxallusi bilan yaxshigina she`rlar yozgani, Fuzuliya ergashib ozarbayjon lahjasida "Layli va Majnun" dostonini yaratgani ma`lum. (16;4)

Umarxon Qo`qon xonlari orasida adolatlisi va vatanparvari bo`lgan. Uning hukmronligi davrida Qo`qon xonligining siyosiy mavqei ancha kuchaydi, chegaralari ancha mustahkamlandi, iqtisodiy salohiyati yuksaldi, mamlakatda tinchlik qaror topib, turli hunarlar, ilm-fan, san`at va adabiyot rivojlandi, ko`plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Shu tariqa, Mulla Olim Mahdum Hojining yozishicha, Umarxon andak fursatda hamma ahli Farg`onaning ko`nglini o`ziga

jazb va musaxxar qilib, eski va qadimgi bid`at va zulmlarg`a, shari sharif man qilgan ishlarga mutlaqo barham berubdur.

Umarxon Farmoyishiga ko`ra, diniy hayotda ham qator islohotlar o`tkazildi. Mirzaolim , Mushrifning "Ansab us-salotin va tavorix ul-xavoqin" asarida yozilishicha, U "Har ishni ulamolar fatvosi bilan" qilib "Shariat hukmiga ko`kdin baland marotib va meroj berdi". Olimxon zulmidan qochib, qo`shni mamlakatlarga ketib qolgan bir qancha ulamo va fuzalo hamda taniqli ziyolilarni Qo`qonga qaytaradi. Ichki hokimiyatni biroz mustahkamlagach, Qashqar, Turkiston, O`ratepa, Jizzax Toshkent kabi shaharlarni ham o`z tasarrufiga kiritadi. O`sha yillarda Olimxonga qarshi aholisi Umarxonni e`zoz va hurmat bilan kutib oladilar. Umarxon davrida masjid va madrasalar qurish keng yo`lga qo`yildi. U 1816-1818 yillarda Qo`qonda Jome masjidi va madrasasining qurilishida tashabbuskor bo`ldi (5;5). Xalq orasida bu qurilish bilan bog`liq diqqatga sazovor bir rivoyat mavjud bo`lib, u Umarxonning pokdomonlik bilan shariatga muvofiq hayot kechirgan shaxs bo`lganligidan dalolat beradi: masjid poydevoriga birinchi g`ishtni qo`yish tantanasiga shaharning barcha nufuzli kishilari yig`iladilar. Amir Umarxon to`plaganlarga murojaat qilib:

- Balog`atga yetgan vaqtdan boshlab she`riy amallarni biror marta ham tark etmagan kishi bormi? - deb so`raydi.

Ulamo-yu, fuzalo-yu, amaldorlardan biror kishi yurak yutib oldinga chiqmaydi. Shunda xon:

- Xudoga shukr, umrida shariatga qoidalariga zid ish qilmagan, o`zim ekanman, - deb ilk g`ishtni qo`yib beradi.

Zamon ulamolari bu holdan nihoyatda ta`sirlanib, hammalari yakdillik bilan uni "jannatmakon" deb ulug`lagan ekanlar".

Umarxon "Amir ul-muslimin" unvonini olib, o`z nomida tanga zarb qilish va ismi juma namozida xutbaga qo`shib o`qitilish huquqiga erishdi.

Umarxon shoir bo`lgani holda shoh ham edi. Uning hayoti, shaxsiyati, ijodi to`g`risidagi ma`lumotlar bizga ko`plab manbalar orqali yetib kelgan. Ular orasida Dilshod-Barnoning asarlari ham mavjud. Umarxon shohlik talabiga ko`ra,

Dilshodning shahri O`ratepani bosib oladi. O`ratepaning unga bo`ysunishi qiyin bo`lganligi uchun u ko`plab odamlarni qiynashga, asir olishga majbur bo`ladi. U qo`lga olgan asirlar orasidan uchta qizni ajratib, xon haramiga olib ketadilar. Ular orasida Dilshod ham bo`ladi. Umarxon Dilshodning shoiraligidan xabar topgan holda unga anorga ne deyursan deydi. Dilshod esa g`azablanib turgani holda "iching qonga to`lduribsen" - deydi.

Xonning g`azabiga uchragan shoira saroydan quviladi. Dilshod Umarxonning shohlik faoliyatini qoralasa-da, uning shoirlik faoliyatini yuksak baholaydi. Dilshod u haqda:

Umarxon nom zolim nomi shoir. Chiroyimiz ko`rub, ul bo`ldi jobir, - deydi.

Shoiraning qarashiga ko`ra, shoirlik va shohlik kelishmaydi, Umarxon taqdir taqozosi bilan toj kiygan ekan, hukmdorlik qoidalariga bo`ysunishga, bu dunyoning o`yinlariga o`ynashga majbur. Boshqacha aytganda, "Shohligi tufayli Umarxon o`z ixtiyoridan tashqari ishlarni qilyapti, chunki azaldan hukmronlik an`anasi shunday bo`lgan va shoir bo`lishiga qaramay, Umarxon bu odatlarni bekor qilishga o`jiz. Shuning uchun shoira tanqidlarining tagida Umarxonni oqlash va unga achinish ohanglari sezilib turadi. Chunonchi, "Urush" radifli g`azalida o`qiymiz:

Jahongirliq tamannosi shuncha erurkim,
Bu nomardg`a Amirni ayladi a`zo urush...
Shohdin shoirliq otini yuvdi oxir, ko`ring,
Shohni mot qoldirib, ayladi savdo urush
Orzu Barnog`a shulki, bu Amir shoir erur
She`r shamshiri ila bo`lg`usi nopaydo urush. (5;33)

Shoiraning bu baytlaridan ham Umarxon faqat shoir bo`lganda edi, unda shohlik tufayli yashayotgan ba`zi shafqatsizliklar, urushlar bo`lmas edi, zero, she`r shamshiri bilan urush bo`lmayd degan g`oya ilgari suriladi.

Umarxon Dilshod hayotini o`zgartirib unga, ko`p zahmat yetkazgan. Uni 17 yoshida ota-onasidan tug`ilgan yurtidan, sevgan yigitidan judo qilgan. Binobarin,

uning Umarxon qiyofasida istilochi zolim shohni, o`zini haramiga olmoqchi bo`lgan zinokor va ishratparast hukmdorni ko`rishi tabiiy edi. Shunga qaramay, u Umarxonning shoirligini, hamisha e`tirof etgan va iste`dodiga yuqori baho bergan. Quyidagi g`azali buning yorqin dalili:

She`riyat kishvariga shoh Amir
Hamqalam do`stlarig`a panoh Amir.

Gar Navoiy ersa sanno'i g`azal,
Doru bo`lg`uchi shifo-giyoh Amir.

Mulki farg`ona adabg`a ersa ko`z,
Misralar ustidag`i nigoh Amir.

Ta`bi Barnosig`a boqsangiz agar,
Shoirlikda zarrinkuloh Amir.

Umarxon shaxsi haqidagi fikrlarni aslida Nodiradan boshlash kerak. Chunki uning insoniy fazilatlarini hech kim sevimli umr yo`ldoshidan ortiq bilmasa kerak. "Shoiraning istalgan bir g`azalini o`qir ekanmiz, undagi asosiy qahramon - yor timsolida Umarxonni ko`ramiz".

Nodira Umarxonning tabiatida so`z zavqi qolib va she`r yozishga ko`ngli moyilligini, davlat va saltanat tashvishlari bilan har qancha band ekanligiga qaramay hamisha xayoli yangi va ohorli tashbeh-u timsollar izlash bilan mashg`ul bo`lib, g`azal, muxammas, musaddas va tarjebandlar mashq qilishi, asarlariga muttasil sayqal berishi va ulardan oshiqlarg`a surur va husn ahlig`a g`urur paydo bo`lishi, o`zaro adabiy suhbatlari ta`sirida o`zi ham goh-gohida misra va baytlar to`qishi, u bu namunalarning ba`zisini tahrir qilib, qiyomiga yetkazishi, shu tariqa, oz fursatda she`r yozish qoidalarini o`rganib olib, shoirlikda mahorat paydo qilgani haqida to`lqinlanib yozadi.

"Ersa goho ul Hazrat ba`zi toza mazmunlardin bir misra birla savol tarifasida so`rar erdilar, filfavr oxiri misra birla javob aytur erdim va tabiatlarini xush qilur erdim. Biri budurkim, bir kuni savol qildilarkim, misra:

- Nega rabobi xirad, ahli junundin ori bor?

Javob aytdimki, misra:

- Kim bular uryon, alarning jubbau dastori bor.

Bu tariqa mazmunlar birla ko`ngullarig`a farak yetkurur erdim mundog` latoyif va nazokatlar birla ro`zg`ori davlat va saltanat xush kechar erdi", - deydi Nodira o`z devonida. (12;20-21).

Ma`lum bo`ladiki, Nodirani she`r yozishga undagan, undagi poetik iqtidorni yuzaga chiqargan, uning mahorat kasb etishi va shoira sifatida shakllanishida Umarxonning xizmatlari katta.

Amiriy va Nodirani o`zaro abadiy mastahkam bog`lovchi rishtalardan biri har ikki shaxs tabiatiga xos tug`ma fazilatlar - adabiyotga muhabbat, she`riyatga ixlos, iste`dod qadri va ijod nashidasi tuyg`usi bo`lgan. Nodirabegimning Umarxon haqida so`z ochganida xuddi shu fazilatlarga urg`u berib, qayd etishi tasodifiy emas.

Qo`qon adabiy muhiti iste`dodlar va noyob asarlarga boy. Buni hatto fitrat o`zining XVI asrdan so`ng "O`zbek adabiyotiga bir qarash" maqolasida ham ta`kidlab shunday deydi. Ashtarxoniylarning so`nggi davrlarida istiqlool olgan Farg`onada ham Olimxon va Umarxonlar zamonida adabiyot yangidan bosh ko`tardi. Ayniqsa, Umarxon zamonida saroy atrofida bir ko`p shoirlar yig`ildilar. Bularning orasida Fazliy, Hoziq, Hijlatxon kabi san`atda yuqori darajada turganlari bor edi" deydi (10;59). O`zbek mumtoz so`z san`ati tarixida alohida hodisa bo`lgan Qo`qon adabiy muhitining vujudga kelishi gullab-yashnashi va adabiyotimizning muhim bir bosqichini tashkil etishida katta rol o`ynagan. Amiriy o`zi asos solgan adabiy muhit namoyandalaridan qolishmaydigan darajadagi noyob iste`dod sohibi edi. Shoh-shoir she`rlarini G`oziy, Hoziq, Maxmur, Ma`dan, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy, Nodir, Gulxaniy kabi zabardast zamondoshlarning ijodi bilan qiyosiy o`rganish bu fikrimizda zarracha mubolag`a yo`qligini ko`rsatadi. Holbuki, nafaqat

jamiyatda, balki adabiyotda ham sinfiy munosabat hukmronlik qilgan sho`ro davrida nomlari zikr etilgan shoirlar ijodi keng o`rganilgani holdi, u adabiy muhitning tashabbuskori va homiysi bo`lgan Amiriy va Fazliy, Ado, Vazir, Nola, Naqib, Oshiq, Mir, Ahad, Ma`yus taxalluslari bilan ijod qilgan. Uning a`yon-u amaldorlari asarlariga saroy adabiyoti tamg`asi bosilib, ular bir chekkaga surib, qo`yilgan edi.

Ammo o`zbek mumtoz adabiyotining asosiy qismi saroyda va unga bog`liq holda yaratilgan Sho`ro davrida ham Navoiy asarlari ulug`landi-yu, uning homiysi do`sti sanalgan Husayn Boyqaro ham saroy vakili edi, shu davrda demokratik shoira saifatida ulug`langan Nodirani turmush o`rtog`i Amiriy ham shoh edi. SHu davrda ijodi qadrlangan Ogahiyning homiysi ham Xiva xoni Feruz edi. Demak, bu davrdagi bunday qarash bir yoqlama va mantiqsizlik edi. Mustaqillik davrida bunday cheklov va soxtaliklar olib tashlanib boy adabiyotimizni o`rganishga keng yo`l ochildi. Shuningdek, Amiriy ijodi ham shu davrdagina qadr topdi.

I.2. A.UMARXON SHE`RIYATINING JANRIY TARKIBI VA MAVZULAR OLAMI

Amiriy ijodida mumtoz she`riyatning o`nga yaqin janrlarida yaratilgan ko`plab she`rlar mavjud. Bu she`rlar shoir devoni nusxalari, Fazliyning "Majmuai shoiron" tazkirasi turli bayozlardan joy olgan. Amiriy ijodiga qiziqish shu darajada kuchli bo`lganki, uning devoni XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkent, Buxoro, Istanbul kabi shaharlarda toshbosma usulda 15 martadan ortiq chop etilgan. Shu bilan birga, she`riyat muxlislari tomonidan qayta-qayta ko`chirilgan she`rlari turli bayoz va majmualarga kiritilgan. Ularning nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo`qondagi qo`lyozma fondlari, kutubxonalar, muzeylar va ba`zi bir adabiyot muxlislari qo`lida saqlanadi. Qo`lyozma toshbosma nusxalarni turli tazkira va bayozlarni tadqiq etishva tavsiflash jarayonida uning 10229 misra merosini aniqlashga muvaffaq bo`lindi. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo`limining ilmiy xodimlari tomonidan yozma adabiyot katalogi uchun yig`ilgan materiallar orasida Amiriy devonining 26 ta qo`lyozmasi hisobga olinib, ularning ilmiy tavsifi berilgan. O`zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo`lyozmalar fondida ham Amiriy devonining 17 ta qo`lyozmasi mavjud.

Amiriyning qo`qonlik adabiyot ixlosmandi Solijon Yo`ldoshevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan 1877-yilda ko`chirilgan nisbatan mukammal devoniga asoslanadigan bo`lsak, shoirning hozirgacha bizga jami 544 ta she`ri ma`lum. Bu she`rlarning janriy tarkibi quyidagicha: 465 g`azal, 53 ta muxammas, 5 ta musamman, 6 musaddas va 16 ta tuyuqdan iborat.

O`zbek tilidagi she`rlar 307 ta, fors-tojik tilidagi she`rlar esa 159 tani tashkil etadi. Amiriy ijodi janriy jihatdan rang-barang bo`lmaganidek, mavzu doirasi ham keng emas. SHoir merosi g`azal, muxammas, musaddas, musamman, tarjeband, tuyuq kabi janrlardan iborat. U o`z iste`dodini ko`proq g`azal va muxammasdan namoyon etgan.

Amiriy devoni tarkibidagi gʻazallar arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Boshqa janrlar ham devon tuzilishining asosiy tartiblariga rioya qilgan holda jamlangan. Devon maxsus nomlanmagan. Ammo muallif tomonidan debocha yozilgan. Shoir sheʼrlarining yaratilish tarixi, mavzu qamrovi maʼnosi timsollar mohiyatini toʻgʻri anglashda "debocha"ning ahamiyati beqiyos. Chunki unda shoirning ijtimoiy faoliyati, ijodiy maqsadi borasidagi sharhlari, izohlari oʻz ifodasini topgan. Bu maʼlumotlar bizga koʻp masalalarni toʻgʻri anglash va xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shoir sheʼriyati mavzusiga koʻra asosan ishqiy yoʻnalishda. Diniy mavzudagi sheʼr va baytlar ozchilikni tashkil qiladi. Shoh-shoir ijodida salaflarida boʻlgani kabi taqdirdan, dunyodan, odamlardan shikoyat motivlari deyarli uchramaydi. Bu balki Amiriyning hayotda omadli kishilardan ekani - siyosiy-ijtimoiy faoliyatida jiddiy qarshiliklarga duch kelmagani kabi, shaxsiy-oilaviy turmushda ham baxtiyorligi bilan izohlanar. Unda-bunda uchraydigan norozilik ruhida baʼzi bayt va misralarni esa oʻtmish adabiyotidagi anʼana taʼsiri deb hisoblash mumkin.

Amiriy, asosan, aruzning xalqchil, koʻp qoʻllanilishi jihatdan turkiy vaznlar sifatida mashhur ramal va hazaj bahrlarida ijod qilgan. Amiriy devonida gʻazal yetakchi oʻringa ega. Oʻzi devon debochasida taʼkidlanganidek, u gʻazalnavis ustozlar izidan borib, ularning barhayot anʼanalarini davom ettirdi. Ayni paytda anʼanaviylik doirasida qolibketmasdan, oʻziga xos maʼno va poetik jilolarga ega boʻlgan dilbar gʻazallar yaratdi. Oʻzbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalandi. Amiriy ijodida haqiqiy va majoziy ishq tasviri oʻzaro omuxta boʻlib ketgan. Zohiran hayot goʻzali madh etilgan. Gʻazallar, koʻpincha botinan ilohiy mahbuba taʼrifiga bagʻishlangan boʻlib chiqadi. "Qoshinggʻa teguzmagʻil qalamni..." gʻazali bu jihatdan fikrimizning dalili boʻla oladi. Hayot goʻzali vasf qilinganday taassurot qoldiruvchi mazkur gʻazalning tasavvufiy mazmun asosiga qurilganligini butxona, tarso, sanam, jomi, Jam, haram, sharob, kosa kabi soʻfiyona istilohlar qoʻllangani, shuningdek, qosh, koʻz, lab, soch, yor timsollarining aynan ramz boʻlib kelgani yaqqol koʻrsatib turibdi. Chunonchi:

Naqshi qalaming muyassar o`lsa,

Naylay bu jahonda jomi Jamni?

Jam - qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid nomining qisqargan shakli. Jamshid "Jami jahonnamo" - jahonni ko`rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo`lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o`tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo`ladigan voqea-hodisalar ham aks etar ekan. Ilohiy sirlarni oshkor qilishi jihatdan may qadahi ham Jomi-jahonnamoga o`xshatiladi. Shuningdek, ilohiy asrordlardan ogoh, komil insonning qalbini ham Jamshid jomi - Jomi Jahonnamoga nisbat berishadi. Chunki bu qalb ilohiy ma`rifatga kon bo`lib, unga boqqan orif Olloh mohiyati g`ayb sirlaridan ogoh bo`ladi.

Solik uchun maqsad - ilohiy mahbuba. Jamshid jomi yoki boshqacha aytganda, dunyo, nafs va jism tashvishlaridan poklanib, shaffof bir ko`zguga aylangan orif qalbi ana shu ilohiy mahbubani ko`rish uchun bir vosita. Binobarin, ma`shuqa qadamining naqshi muyassar bo`lar, ya`ni oshiq ma`shuqa vasliga yetar ekan, endi Jamshid jomiga ortiq ehtiyoji bo`lmaydi. Shuning uchun ham u yorga yetgach, endi Jamshid jomini nima qilaman, - deydi. Qarshingda ma`shuqaning o`zi turganda, uning ko`zgudagi aksiga boqmaysan-da!

Ma`lumki, ishq - Sharq she`riyatining asosiy mavzusi hisoblanadi. Lekin ko`pchilik shoirlar ijodida falsafiy-ijtimoiy mulohazalar, falak, taqdir, zamonadan shikoyat motivlari, pand-nasihat, tabiat manzaralari tasviri va boshqalarga ham duch kelsak. Amiriy she`rlari boshdan-oyoq muhabbat mavzuida: u goh dunyo go`zali, goh ilohiy mahbubani hassos misralarda tarannum etsa, goh majoziy va haqiqiy ishq tasvirini mahorat bilan uyg`unlashtirib yuboradi. Goh an`anaviy, goh xalqona, goh ohorli tashbeh-u timsollar, badiiy san`atlar vositasida ma`shuqani ta`rif-tavsif etadi, o`zining unga bo`lgan jo`shqin hissiyotlarini otashin misralarga tizadi. Ishqni hayotning ma`nosi, ijodning ilhomchisi hisoblagan shoir ko`plab g`azallarida o`zini "muhabbat mulkining sulton", "ishq shahrining shohi", "ishq mulkining amiri", "mulki dil amiri", "ishq amiri", "ko`ngil taxti amiri", "junun shahri amiri", "junun ahli shohi", "iqlimi vafo amiri" deydi. U bir g`azalida ishq masalasida Aflotun o`zining shogirdi ekanligini aytsa, boshqasida: "Men ko`ngillar

mulking amiri", "ishq shahrining shohiman, bu borada dargohimdagi mulozimlarning har biri Aflotun bilan tengdur" deb lutf etadi:

Mulki dil Amirimen, ishq shahrini shohi

Har biri Falotundir dargohimda choparlar.

Sharq soʻz sanʼatining zabardast namoyandalaridan oʻrganish, ulardan taʼsirlanish, gʻazallariga tatabbu yozish, taxmis bogʻlash - Amiriy ijodining yetakchi xususiyati hisoblanadi. Xususan, u Kamol Xoʻjandiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi ustoz shoirlardan bir umr mahorat sabogʻini oʻrgandi. Binobarin, bu ulkan soʻz sanʼatkorlari asarlarini chetlab oʻtib Amiriy ijodiga baho berish mumkin emas. Chunki shoh-shoir sheʼrlarining har baytida bu sheʼriyat daholarining hayotbaxsh taʼsiri sezilib turadi.

Amiriy ustodlar anʼanasini sadoqat bilan davom ettirib, oʻzi ham yuqori choʻqqilarni koʻzladi. Natijada salafлари gʻazallariga bogʻlangan muxammaslar va ulardan ilhomlanib bitgan tatabbulari ham uning isteʼdodi darajasini belgilaydigan mezonga aylanadi.

Amiriy ijodida Navoiy va Fuzuliy asarlarining taʼsiri yaqqol koʻrinadi. Uning ayniqsa, ustoz Navoiy ijodiga ehtiromi baland. Uning 20 ga yaqin gʻazaliga muxammas bogʻlagan. Oʻzi yaratgan asarlarini esa kamtarlik bilan Navoiy merosi oldida bir mashq, havas deb hisoblaydi.

Bir pari paykar xati laʼlini sharh ettim Amir

Bu gʻazal ne zeri mashqidur Navoiy daftari (2; 137).

Bu misralardan Amiriyning ijod yoʻliga kirishida va shunday goʻzal asarlar yaratilishida Navoiy asarlari mutolaasining oʻrni beqiyosligini anglashimiz mumkin. Yuqorida Navoiy gʻazallariga muxammaslar, naziralar bogʻlaganini aytib oʻtdik. Fikrimizni quyidagi baytlar orqali isbotlashimiz mumkin:

Orazin pinhon qilur qonli yoshim koʻrgach Amir,

Oʻylakim yogʻin kuni tushmush quyosh uzra sahob...

bayti Navoiyning :

Orazin yopgʻoch koʻzimdin sochilur har lahza yosh,

Bo`ylakim paydo bo`lur yulduz nihon bo`lg`och Quyosh -
baytlarini beixtiyor yodga soladi.

Yoki Amiriyning:

Ishq hayrat ashkidin chehramni gulgun ayladi,

Topti ul naqqoshdin bu surati devor zeb -

bayti Navoiyning

Keldi chin naqqoshi ul yuz tarhini qilmoqqa naqsh,

Chehra ochib naqshi devor ayladi naqqoshni

baytlariga mazmuniy hamohanglikda bitilgani o`rinib turibdi.

Amiriy ijodida ishqning yetakchi mavzu ekanligini yuqorida ta`kidlab o`tgan edik. Ammo uning zamiriga shoirning keng qamrovli hayotiy xulosalari, fikrlari ham singdirilgan. Ishq iztiroblari, kechinmalari ma`shuq ta`rif-u tavsifi bilan bir qatorda chuqur donishmandona, orifona falsafiy mushohadalar ham bayon etilgan. U ishq vositasida dunyoni asl mohiyatini yoritib bergan. Bu fiklar ba`zan dunyoviy, ba`zan ilohiy talqinda o`z ifodasini topgan. Ba`zi she`rlarida shoirning zamon va zamondoshlariga munosabati aks etgan. Davlat arbobi sifatida siyosiy hayotdagi o`rindan og`rinib, kuyinib aytgan kechinmalarini his etamiz:

Ey falak yog`durma ko`p g`am jalosin,

Jomi ayshim sindi toshingdin seni (3;253).

Shoir davron iztiroblari haqida so`zlar ekan, so`zlar tizimini katta mahorat bilan tanlaydi. Bir qaraganda "aysh jomining falak toshidin sinishi" oddiygina jumla. Ammo aynan shu so`zlarning qo`llanishi liri qahramon qalbidagi ozorlarni, his-tuyg`ularni aniq yetkazib berishni ta`minlagan (1; 137). Bu baytdan ko`rinadiki, demak, Amiriy ijodida ham falakdan shikoyat, nolish holatlari ham mavjud.

Yana Amiriy ijodida mavzu jihatdan hasbi-hol tarzdagi misralar ham mavjud. Shunday misralar Amiriy devoni debochasiga kiritilgan ikki ruboiydan birinchisida ham uchraydi.

Chun ma`dolat ayvonini bunyod ettim,

Ehson ila el xotirini shod ettim.

Bas, judu saxou adl ila dod ettim,

Andoqki, jahon mulkini obod ettim (3;20).

Bu ruboiyda Amiriyning xon sifatidagi faoliyati, fuqarolarga, davlatga boʻlgan munosabati taʼriflangan. Bu ruboiy taronai ruboiy boʻlib a-a-a-a tarzida qofiyalangan. Shuning uchun oʻqilishi, yod olinishi ravon, ohangdor.

Debocha tarkibidagi ikkinchi ruboiy esa anʼanaviy ishq mavzuida. Unda shohlik va oshiqlik ikki yonda turganda koʻngulning gʻalaba qilishi tasvirlangan. Demak, yuqoridagilardan koʻrinadiki, Amiriy ijodi turli janrlarda, mavzular olami jihatdan ishq yetakchi oʻrinda, ammo boshqa mavzularning ham goʻzal jilolanishi koʻzga tashlanadi.

II. 1. AMIRIY IJODIDA TASHBEH, ISTIORA VA HUSNI TA'LIL SAN`ATLARINING QO`LLANILISHI

Amiriy ijodida u yoki bu badiiy san`atdan xoli, shunchaki ifodalangan baytlap yo`q hisobi. Bu uning adabiyotning asl mohiyati va o`z ijodi orqali adabiy estetik talablarga rioya qilganligidan dalolat beradi. SHoir biron-bir fikr-kuzatishlari, o`y-mulohazalarini to`g`ridan-to`g`ri ifodalamaydi - xoh an`anaviy, xoh ohorli bo`lsin tashbehtar qatiga o`rab beradi.

Bu tashbehtarining ko`pi hayotiyiligi, o`quvchiga tanish narsa-tushunchalar asosiga qurilganligi, ko`ngliga yaqinligi, sodda va tushunarililigi, go`zal va ta`sirchanligi bilan diqqatni toptadi. Bugina emas, shoirning aksariyat bayt va misralarida bir necha san`atlar bir-birini taqozo qilib, bir-birini to`ldirib, o`zaro yonma-yon keladi. Bu Amiriyning Sharq adabiyotini chuqur bilishi, salaflari ijodini chanqoqlik bilan mutolaa qilib ulardan mahorat sirlarini o`rgangani, ayni paytda, o`zi ham ularga munosib san`atkor shoir bo`lib yetishganini ko`rsatadi.

Chunonchi, Ergash Ochilov nazdida bir bayt tahliliga qarasak:

Yor aydi: "Qaysi hududur guliston sahnida?"

Aydim: "Ey siymbadan, yuz uzra holingdur o`shal".

Xolni hinduga o`xshatish mumtoz she`riyatda keng tarqalgan tashbehtardan. Xol qoraligi jihatdan hinduga nisbatan beriladi. Bu tashbeh keng tarqalganligidan hatto istioraga aylanib ketgan. Xudd gul deganda, yuz, sarv deganda qomat, bodom deganda ko`z, lal deganda lab ko`zda tutilgani kabi, hindu deganda ham o`z-o`zidan, xol tushuniladi. Keltirilgan baytda ham u aynan istiora bo`lib kelgan. Shu bilan birga "siymbadan" so`zi ham kumush tanli yor ma`nosida kelib, istiora hosil qilyapti. Diqqat qilinsa, shoir xol - hinduga o`xshaydi degan an`anaviy tashbehni savol-javob san`ati asosida obrazli ifodalab, o`ziga xos badiiy mukammal bir bayt yaratgan. Bu yerda "guliston" so`zi ham istiora bo`lib, ma`shuqaning yuzini ifodalab kelyapti.

Aslida "guliston" so`zi bu yerda ikki ma`noda kelib, iyhom san`atini ham hosil qilyapti. Gulzor va ma`shuqaning yuzi

Baytda tashbeh san`ati ham mavjud: undagi xol gulistondagi hinduga o`xshatilyapti. Ko`rinib turibdiki, birgina baytda savol-u javob, tashbeh, iymom va istiora (3 marta) san`atlari yonma-yon kelgan. Bu Amiriyning mahorati baland shoir bo`lganidan dalolat beradi.

Amiriyning yana br baytida istiora mavjud:

Xush ul soatki ul navras niholingni ko`rgan chog`da

Ko`zum hayron bo`lub ruhi ravonim bo`lsa qurboning.

Bu baytda navros, ya`ni endi o`sib kelayotgan niholingni ko`rib vaqtim xundur, deydi (16,1). Bu o`rinda nihol bu qomat, ya`ni o`sib kelayotgan qomatingni ko`rib vaqtim xush va ruhi ravonim sen uchun qurbon bo`lsin deydi.

Amiriyning bir g`azalida:

Nega muncha siyohdur kokul u

Magarkim dudi ohdur kokul.

Xalqai zulfidin ko`rundi yuzi,

Xolai badri mohdur kokul.

Husn iqbolini yoshurmoq uchun,

Toji zeri kulohdur kokul.

Hiylai qatl etarga xol-u xati,

Ikki zolim guvohdur kokul.

Kishvari husnning Amiridur,

Saltanat dastgohdur kokul.

Boshdan-oxir istiora-yu tashbehlar bilan yo`g`rilgan. Birinchi baytda:

Nega muncha siyohdur kokul,

Magarkim dudi ohdur kokul.

Qora soʻzi "siyoh" orqali ifodalanmoqda. Bu oʻrinda istiora sanʼati mavjud. Ikkinchi misrada dudi oh, yaʼni achchiq oʻtli ohga oʻxshatiladi. Yor kokili bu oʻrinda tashbehni hosil qilgan.

Ikkinchi baytda:

Halqai zulfidin krundi yuzi,
Halai badri mohdur kokul.

Baytda zulfning gajakligi, qayrilmaligi, halqa vositasida ifodalanmoqda, bu esa noyob, kamyob istioradir. Ikkinchi misrada esa kokilni holai badri moh, yaʼni oʻn toʻrt kunli oyning gardishiga oʻxshatish orqali tashbehni yuzaga keltirgan. Bu tashbeh ham nodir tashbehlardandir. Chunki odatda, shoirlar yuzni oyga qiyoslashadi, bu tashbeh esa betakrordir.

Uchinchi baytda

Hum iqbolini yoshirmoq uchun,
Toji zeri kulohdur kokul.

Ikkinchi misrada kokil, kuloh, yaʼni tojga oʻxshatilib tashbeh hosil qilingan boʻlsa, baytning oʻzida husni taʼlil mavjud. Yaʼni unda husningni mendan berkitmoq uchun tojdir kokiling deydi.

Toʻrtinchi baytda:

Hiylai qatl etarga xol-u, xati
Ikki zolim guvohdur kokul.

Yorning xol-u xoti ikki guvohga oʻxshatilib, tashbeh hosil qilingan. Bayt mazmuni neki qatl etishga guvohlik beradi. Xol-u xating deydi shoir kokilga shikoyat etib.

Oxirgi baytda:

Kishvari husnning Amiridur,
Saltanat dastgohdur kokul.

Bu baytda Amiriy oʻzini husn mamlakatining shohiga oʻxshatadi. Bunda saltanat uning uskunasi deyiladi. Saltanat dastgohga oʻxshatilmoqda tashbeh. Amir soʻzi ham taxallus ham shoh, yaʼni saltanat egasi maʼnosida kelyapti. Bu iyhom sanʼatidir.

Amiriyning yana bir bayti o`xshatish asosida qurilgan ammo unda tashbeh san`ati bilan bir qatorda harf, yohud kitobat san`ati ham yuzaga kelgan.

Ajab ermas agar mushaf desam husning kitobini

Jamoling surai Yusuf, qad-u zulfing - alif, lomim.

Bunda yor husni mushaf, ya`ni Qur`onga o`xshatilmoqda. Unda, ya`ni husningda jamoling go`yo Qur`ondagi Yusuf surasidir deydi. Bizga ma`lumki, Yusuf go`zallikda tengsiz ekanligi Qur`onda ham aytiladi. SHoir shunga ishora qilyapti. Yorning qadini esa alifga, zulfini lom harfiga o`xshatyapti. Bu o`z-o`zidan harf san`atini yuzaga keltiradi.

Yana bir baytida

Goh Ra`no qad ila, ey gul, xirom et bog` aro

Sarv to qaddig`a noz aylab tamannolanmasun.

Bu baytda yor qadi ra`noga o`xshatilyapti, tashbeh yuzaga kelyapti. Yor so`zi o`rnida gul so`zi ishlatilyapti, bu istiora san`atini hosil qiladi. Oshiq yoriga go`zal qadingni namoyon qilib bog`da biroz sayr ayla, zero, sarv o`z qadiga moh bo`lib g`ururlanmasin, sening qaddingni ko`rib o`zidan go`zalroq qaddi-qomat borligidan biroz pastroq tushsin, deydi.

Ko`rib o`tganimizdek, Amiriyda bu tashbeh, istiora, husni ta`lil san`atlarining hosil qilinishining ham an`anaviy, ham noyob namunalarini uchratishimiz mumkin.

II. 2. AMIRIY IJODIDA TALMEH, TAZOD, TAJNIS BADIY SAN`ATLARINING QO`LLANILISHI

Yuqorida, asosan o`xshatish va bir narsani yoki jarayonni chiroyli ifodalash yotuvchi badiiy san`atlar tashbeh, istiora, husni ta`lil san`atlari qo`llanilgan go`zal baytlarni ko`rib o`tdik. Shular bilan bir qatorda, Amiriy ijodida talmeh san`ati qo`llanilgan go`zal satrlar tazod, tajnisning ham go`zal namunalari mavjud. Ishq ta`riflangan, u o`t, olovga o`xshatilgan bir go`zal g`azalining maqtasida shunday deydi:

Ishq Amirining sipohig`a duchor o`ldi magar

Mulki Iskandar g`ubor o`ldi-yu Doro bo`ldi kul (3;146).

Baytda shoir o`zini ishq Amiri deya ataydi. Ishq kuchini shunday ta`riflaydiki, agar uning qo`shiniga Iskandar mulki duch kelsa bir g`ubor chang kabi bo`lib ketadi. Agar Doro qo`shinlari duch kelsa kulga aylanadi deydi. Bizga tarixdan ma`lumki, Iskandar ham Doro ham kuch-qudratda tengsiz, yengilmas, janglarning aksariyatida g`alaba qozongan podshohlardan bo`lishgan. Demak, hatto shunday muzaffar shohlar ham ishq oldida mag`lubdirlar. Amiriy ishq qudratini ko`rsatmoqlik uchun shunday buyuk shavkat egalarini hamishq oldida ojiz qilib ko`rsatadi. Va baytda talmeh san`atini ham yuzaga keltiradi. Bu baytda Amir so`zida ishqning amiri Sultoni Amir ma`nolari singdirilgan. Har ikkala маъносида ham tushunishimiz mumkin. Bu esa ittifoq san`atini yuzaga keltirgan. Iskandar va Doro timsollariga keladigan bo`lsak, Amiriy bu timsollarga tez-tez murojaat qilib turgan. Yana bir g`azali maqtasida:

Adli yor o`lsa Amir osondur

Bo`lmoq Iskandar ila Dorodek (3;120)

deydi. Ya`ni, agar yor menga adolat qilsa, shafqat qilsa, men shunday qudratga ega bo`lamanki, Iskandar ila Doroga teng kelmoq ham oson bo`lib qoladi demoqchi. Demak, bu o`rinda ham talmeh san`ati mavjud.

Yana bir g`azalida:

Vasldin dam urma, ey oshiq agar Mansursen,

Deding: asrori analhaq dordin andisha qil (3;148).

Bu baytda ham g`azalda boshdan oxir ta`kidlangan: agar yorga yetmoqlikni istasang ehtiyot bo`l, ishq yo`llarida, har bir narsada andishali bo`l deydi. Ushbu baytda ham: agar oshiq bo`lsang, vasldan gapirma, yo`qsa Mansur Xalloyning kuni boshingga tushgay. SHundan andisha qil deydi.

Bizga ma`lumki, Mansur Xalloy tasavvufdagi 4 ta bosqichni bosib o`tib, Olloh vaslidan bahramand bo`lgan va Olloh bilan birlik hosil qildim ma`nosida "anal haq" ya`ni, men Xudoman deydi. Ammo u bu so`zlarni ma`rifatli xalq oldida emas, ishqdan bexabar omma oldida aytadi. Ishq neligini bilmagan va uning so`zlari mohiyatiga yetmagan omma uni o`limga mahkum etadi.

Shu voqeani nazarda tutib, shoir sen to`g`ridan-to`g`ri vasldan so`z ochma yo`qsa shoshqaloq Mansur kuni boshingga tushadi deydi. Bu obrazlardan tashqari Layli, Majnun, Uzro, Farhod, Ibrohim, Vomiq, SHirin, Yusuf, Zulayho kabi obrazlar ham Amiriy g`azal-u baytlarida talmehning yuzaga kelishiga qatnashgan. Bu san`at bilan bir qatorda Amiriy asarlarida tazod san`atining ham ajoyib namunalari uchraydi.

Savodi shomi zulfingni ko`rub dedim maso hay-hay

Dedi: ruxsoringga o`tru o`lub subhi safo hay-hay (3;239).

Ushbu baytda shoir yorning Shomi zulfi ya`ni qora zulfini ko`rib maso ya`ni kechqurun bo`ldimi deydi. Ya`ni zulfing qaroligidan doim kechqurundek demoqchi. Shunda yor deydi ruxsoring o`tru ya`ni jamoling qarshisida bo`lganimda Subhi safo, ya`ni bayram-bazm tongidek doim deydi. Bu baytda "Subh" va "maso" so`zlari o`zaro tazod san`atini yuzaga keltirgan. Yana zulfning qaroligini shom orqali ifodalanishi istiora san`atini hosil qilgan.

Husn shohisen, jono, bu xazin gadolarg`a,

Ko`z uchi bila boqib xayr ayla ehson qil (3;149)

Bu baytda ma`shuqa husn eli shohi deya atalib oshiq gado deyiladi ya`ni vasl gadosi. Ma`shuqaga ko`z qiringni oshig`ing tomon tashlab u bechoraga xayr ayla ehson qil, ya`ni shu harakating u uchun mukofotdir deydi. Baytda "shoh" va "gado" so`zlari tazod san`atini hosil qilgan. Baytda tazoddan tashqari tashbeh ma`shuqani shohga, o`zini gadoga o`xshatish asosida (tanosib) gado, xayr qilmoq,

ehson qilmoq soʻzlarini bir oʻrinda keltirish orqali esa tanosib sanʼati yuzaga kelgan. Vasl bazmida may ichmak oson, ammo Hajr paymonasidan yutmak erur qon mushkul.

Ushbu baytda vasl onida har qanday qiyinchilik ham oson, hijronda esa har bir narsa mushkuldir deydi. Vaslda ichgani may boʻlsa, hajrda ichgani qon deydi shoir. Baytda "vasl" va "hajr" hamda "oson" va "mushkul" soʻzlari tazod sanʼatini yuzaga keltirgan.

Yana Amiriy ijodida shunday goʻzal sanʼatlardan tajnis sanʼatini uchratishimiz mumkin. Bu sanʼat asosan tuyuqlarda mavjud.

Amiriy tuyuqlarida kitobxonni mulohaza qilishga tajnis soʻzlarning maʼnolarini bilib olishga chorlovchi, uning soʻz boyligini oshirishga xizmat etuvchi joziba bor. Devonda berilgan birinchi tuyuq:

Orazing gulzori jannat bogʻidur,
Tori zulfung jon qushini bogʻidur
Halqai zunnor zulfung davrida
Kofiri ishq oʻlmogʻionlar bogʻidur.

Birinchi misrada "bogʻidur" - jannat, firdavs bogʻi, ikkinchi misradagisi robita, bogʻlovchi vosita, toʻrtinchi misrada esa, ishq gashtini surolmaganlar, uning yoʻlida alam chekmaganlar baland odamlardir maʼnolarida qoʻllangan (3;174). Tuyuqda yor goʻzalligi taʼriflangan boʻlib, tuyuq talabi boʻlgan tajnis sanʼatidan tashqari tashbeh sanʼati (orazing gulzori), tanosib sanʼati (gulzor, bogʻ, qush) soʻzlari ham mavjud.

Devondagi ikkinchi tuyuq:
Ey parivash gul yuzingdin parda ol
Kim gʻamidin koʻzda yoshim boʻldi ol.
Yor boʻlgʻoylar senga mahshar kuni
Ahmad Muxtor ila Ashobi ol.

Birinchi misradagi "ol" tajnis soʻzi "yuzingdagi pardani olib tashla", ikkinchi misradagisi esa "mahshar kuni senga avliyolar yordam beradi, jazolanishdan saqlab qoladi" maʼnolarini anglatadi (3;175).

Bu tuyuq mazmunida oshiq yoridan bir bor yuzidagi pardani olib qo'y, sening g'amingdan ko'zdan yosh o'rnida qizil qon oqmoqda, menga shafqat qilsang senga mahshar kunida avliyolar yordam beradi deydi.

Devondagi uchinchi tuyuqni mustaqil tahlilga tortsak:

Bodasin betobman bu kecha men
Laling istob emdi jondin kechamen.
Sohili maqsadg'a yetgaymanmi deb
Ko'z yoshim daryosida suv kechamen (3;291).

Bu tuyuqda birinchi misrada "kecha" va "men" so'zlari alohida so'zlar bo'lib tun va oshiqning o'ziga ishora olmosh, ikkinchi misradagi "kechamen" ya'ni voz kechmoq, yo'qotmoq ma'nolarida qo'llanilgan. To'rtinchi misrada esa kechmoq ya'ni bosib o'tmoq ma'nolarida qo'llanilgan.

Tuyuq mazmuni esa bodasiz, ya'ni ishqsiz betobman bu kecha men deydi oshiq Laling ya'ni labingni istab bu jonimdan kechaman deydi. Maqsadim sohiliga yetish ilinjida ko'z yoshim daryosida suvdan kechaman ya'ni o'taman deydi. Asarda tajnisdan tashqari istiora san'ati labni la'l deya ta'riflash orqali hosil qilingan. Ko'z yosh daryosi birikmasida mubolag'a san'ati hosil qilingan.

Ul pari jonimg'a o'tlar yoqadur
Kuyganim ko'nglig'a yaxshi yoqadur
Ishqida har yon tushub jaybimg'a chok
Telbamen piyrohonim beyoqadur.

Bunda birinchi misradagi "yoqadur" o'tni yo'qmoq ma'nosida, ikkinchi misradagi "yoqadur" yoqtirmoq, xushlamoq ma'nosida, to'rtinchi misradagi beyoqodur esa kiyimning yoqasi ma'nosida ishlatilgan.

Tuyuqda esa yorning jafolari haqida so'zlangan. Uning jafolari, jismimga o'tlar yoqadi, jismimning o'tda kuyib qiynalgani unga yoqadi deydi. Ishqidan har mustahkamliklarimga choklar tushadim deydi. O'zini telbaga qiyoslab piyrohonim ya'ni ko'ylagim beyoqadur deydi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Amiriy badiiy so'z qadrini, o'rnini, muhimligini anglagan va shu asnoda ularni o'z o'rnida qo'llay olgan ijodkordir. U

asarlarida betakror badiiy san`atlarni qo`llab, ya`ni ohorli shaklda qo`llab go`zal asarlar yaratgan.

XULOSA

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, adabiyotimizning zabardast vakili bo`lgan Amiriy ijodkor sifatida go`zal asarlar qoldirgan adabiyot, ijod ahllarini rag`batlantirib, ularni erkin ijod qilishlari uchun sharoit yaratib bergan, shu orqali ham o`zbek adabiyotiga nodir asarlar yaratilishiga sababchi bo`lgan shaxsdir.

Uning ijod namunalarida ham shoh va shoir ekanligi sezilib turadi. Chunki unda, taqdirdan nolish, falakdan arz nuqtalari deyarli yo`q. Amiriy ustozlar ilmiy va badiiy merosiga qiziqqan holda ularga munosib voris bo`lib, ularning ijodini rivojlantirdi. Ularning asarlariga manzuma, naziralar bog`ladi. U har bir baytni bitganda ham adabiyotning vazifasi va ahamiyatini anglagan holda ularning ma`no-mazmuni. Tarbiyaviyligi, badiiyligi jihatidan boyitishga harakat qildi. Amiriy ijodi bizgacha tadqiq etilgan, biz ham kamtarona tadqiq etdik, bizdan keyin ham o`z tadqiqotchilarini kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Йуксак маънавийат йенгилмас куч. Т.:Маънавийат, 2008.
2. Адизова И. Ўз.м.адабийоти тарихи. “Фан”. 2006.
3. Амирий. Девон. Т.: 1972.
4. Амирий. Қошингга тегузмоғил қаламни. “Шарқ” 2008.
5. Дилшод, Анбар Отин. Ўзбекистон шоирлари байози туркуми.
6. Фитрат А. Танланган асарлар. 2 жилд. Т.: 2000 59 бет.
7. Ҳожиаҳмадов. Шеър санъатларини биласизми. Т.: “Шарқ” 1993.
8. Ибрат. Фарғона тарихи.
9. Жўрахонов А. Нодира лирикасида Умархон образи // Ўзбек тили ва адабийоти. 1997. 5-сон 46-бет.
10. Матжонов С. Адабийот Унв-л қўлланма. Т.: 2011.
11. Нодира-Комила. Девон.
12. Орзибеков. Ўзбекистон адабийоти тарихи. Т.: Ўзбекистон йозувчилар уйушмаси нашрийоти. 2006.
13. Қайумов А.Қўқон адабий муҳити. (XVIII-XIX асрлар). Т.: 1961.
14. Норсо Шамсийев ва С.Иброҳимов. Навоий асарлари луғати. Т.ҒҒ. 1972.
15. Ўзбекистон тарихи. 5 том.